

Kirish (5 min.).

O'qituvchi o'quvchilarni kutib oladi, davomatni tekshiradi va bilimlarni mustahkamlash uchun savollar beradi.

1. Konsert zalida o'zimizni to'g'ri tutishga nima yordam beradi?
2. Konsert zalida o'zini tutish qoidalaridan qaysilarini eslab qoldingiz?
3. Partitura nima va u dirijyorga qanday yordam beradi?

Nazariy qismi (5 min.).

O'quvchilar o'qituvchi bilan birgalikda "Kim dunyoda hammadan mehribon" qo'shig'ini tinglaydilar.

Amaliy qism (5 min.).

Tinglab bo'lgandan so'ng o'qituvchi savollar beradi:

1. Bu qo'shiq kimga bag'ishlangan?
2. Bu qo'shiqni tinglaganingizda qanday his-tuyg'ular paydo bo'ldi?

Nazariy qismi (5 min.).

O'quvchilar o'qituvchi bilan birgalikda "Vatanjonim-Vatanim!" qo'shig'ini tinglaydilar..

Amaliy qism (15 min.).

Tinglab bo'lgandan so'ng o'qituvchi savollar beradi:

1. Bu qo'shiq kimga bag'ishlangan?
2. Ushbu qo'shiqni tinglaganingizda nimalarni his qildingiz?
- 3.

Keyin o'qituvchi o'quvchilarni ikki guruhga bo'lib, topshiriq beradi: birinchi guruh qo'shiq matnini satr-satr o'qiydi, ikkinchisi uni takrorlaydi, shundan so'ng guruhlar rollarni almashtiradilar. O'quvchilarning diqqati to'g'ri talaffuz qilishga qaratiladi. Natijada o'quvchilar ikkala qo'shiqni ham yoddan o'rganadilar.

Yakuniy qism (5 min.).

Mustaqil ish uchun topshiriq: adabiy manbalardan yoki Internetdan foydalanib, o'qituvchilar va Vatanga bag'ishlangan she'r va qo'shiqlarni toping. Sevimli asaringizni tanlang va tanlovingizni tushuntiring.

Dars oxirida o'qituvchi o'quvchilarni qarsaklar yordamida o'z yutuqlarini baholashni taklif qiladi – agar yoqqan bo'lsa, baland ovozda qarsak chalishadi.

4 dars. Estrada musiqasi

Darsning maqsadi:

- o'quvchilarda musiqiy janrlar xilma-xilligi haqida tasavvur hosil qilish;
- o'quvchilarning musiqiy dunyoqarashini kengaytirish;
- o'quvchilarning estetik madaniyatini rivojlantirish.

Ta'lim natijalari:

- o'quvchilarda musiqiy janrlar xilma-xilligi haqida tasavvur mavjud;
- o'quvchilarda estrada musiqasi haqida tasavvur mavjud;
- o'quvchilar avlodlar orasidagi estrada musiqasi farqlarini biladilar.

Zaruriy vositalar: darslik, gadjet.

Kirish (5 min.).

O'qituvchi o'quvchilarni kutib oladi, davomatni tekshiradi va bilimlarni mustahkamlash uchun savollar beradi.

1. O'tgan darsda qanday qo'shiqlarni o'rganib chiqdik?
2. Bu qo'shiqlar nima haqida edi?
3. Bu qo'shiqlar sizda qanday his-tuyg'ularni uyg'otdi?

Estrada musiqa – ko'ngilochar musiqiy san'at turi. U raqs musiqasi, turli qo'shiqlar, vokal-instrumental ansambllar uchun konsert asarlarini o'z ichiga oladi. Estrada musiqa har yerda jaranglaydi: radio, televideniye, kinoda, teatrd, sirka.

O'qituvchi quyidagi savollarni berib, muhokama o'tkazadi:

Estrada san'atkorlarini bilasizmi? Ularning ismlarini ayting. Agar o'quvchilar qiynalsa, o'qituvchi yordam beradi.

Ularning qo'shiqlaridan parcha kuylab bera olasizmi?

O'zbekistonlik qaysi estrada ijrochilarini ayta olasiz?

Ota-onangiz qaysi o'zbekistonlik estrada ijrochilarining qo'shiqlarini tinglashadi?

Zamonaviy estrada musiqasida qanday yo'nalishlarni ayta olasiz? (Vokal, vokal-instrumental, raqs, raqs shou)

Oilaviy bayramlarda qo'shiqlar aytasizmi? Tafsilotlarini aytib bering.

O'quvchilar darslikdagi illyustratsiya yordamida estrada asboblari bilan tanishadilar. O'qituvchi o'quvchilardan tasvirlangan asboblarning nomlarini so'raydi, agar ular javob berishda qiynalishsa, yordam beradi. Internet orqali o'quvchilar gur

Nazariy qism (5 min.).

O'qituvchi o'quvchilarga estrada musiqasi haqida gapirib beradi.

Bilimlar kvanti

Estrada musiqasi – ko'ngilochar musiqiy san'at turi. U raqs musiqasi, turli qo'shiqlar, vokal-instrumental ansambllar uchun konsert asarlarini o'z ichiga oladi.

Estrada musiqa har yerda jaranglaydi: radio, televideniye, kinoda, teatrd, sirkda.

U doimo turli quvnoq tomoshalardan iborat bo'ladi. Odamlar konsert zallariga borishadi, televizorda va internetda estrada konsertlarini tomosha qilishadi. Ko'pchilikning o'z sevimli ijrochilari va qo'shiqlari bor. Yoshlarda va kattalarda o'zlari yaxshi ko'rgan estrada yulduzlari bor.

Amaliy qism (15 min.).

O'qituvchi quyidagi savollarni berib, muhokama o'tkazadi:

1. Estrada san'atkorlarini bilasizmi? Ularning ismlarini ayting. Agar o'quvchilar qiynalishsa, o'qituvchi yordam beradi.
2. Ularning qo'shiqlaridan parcha kuylab bera olasizmi?
3. O'zbekistonlik qaysi estrada ijrochilarini nomlay olasiz?
4. Ota-onangiz qaysi o'zbekistonlik estrada ijrochilarining qo'shiqlarini tinglashadi?
5. Zamonaviy estrada musiqasida qanday yo'nalishlarni ayta olasiz? (Vokal, vokal-instrumental, raqs va raqsli shoular)
6. Oilaviy bayramlarda qo'shiqlar aytasizmi? Tafsilotlarini aytib bering.

Nazariy qism (10 min.).

O'quvchilar darslikdagi rasmlar yordamida estrada musiqa asboblari bilan tanishadilar. O'qituvchi tasvirlangan asboblarning nomlarini so'raydi, agar o'quvchilar javob bera olishmasa, ularga yordam beradi. Internetdan foydalanib, o'quvchilar guruhlariga bo'linib tasvirlangan asboblarni tinglash uchun videolar qidiradilar (masalan, P. Dezmondning «Beshga harakat qilamiz»; Pelageyani jonli konsert).

Yakuniy qism (5 min.).

O'qituvchi mustaqil ish uchun topshiriq beradi va o'quvchilarni 3 guruhga bo'ladi.

So'ngra quyidagi mavzularda hikoya tayyorlashni taklif qiladi:

- 1-guruh – zamonaviy estrada musiqa;
- 2-guruh – O'zbekiston estrada musiqasi;
- 3-guruh – ota-onamning davridagi estrada musiqasi.

Dars oxirida o'qituvchi o'quvchilarga qaysi guruhning taqdimoti ko'proq yoqqanligini ko'rsatish uchun qo'llar yordamida "layklar" qo'yishni taklif qiladi.

5 – dars. Baraban

Darsning maqsadi:

- o'quvchilarning musiqiy dunyoqarashini kengaytirish;
- o'quvchilarda estetik madaniyatni rivojlantirish;
- o'quvchilarning musiqiy asboblarda ijro etishga qiziqishini oshirish.

Ta'lim natijalari:

- o'quvchilarning qo'shiqlarni to'g'ri ijro etish haqidagi tushunchalari kengayadi;
- o'quvchilarning vokal ijodkorlik ko'nikmalari rivojlanadi;
- o'quvchilarda musiqiy asboblarda ijro etishga qiziqish rivojlanadi.

Zaruriy vositalar: darslik, gadjet, shovqinli zarbli asboblari.

Kirish (5 min.).

O'qituvchi o'quvchilarni kutib oladi, davomatni tekshiradi va bilimlarni mustahkamlash uchun savollar beradi.

1. Sizga estrada musiqa yoqadimi va nega?
2. Estrada orkestrining asboblari eslab ko'ring va ularni nomlang.

Nazariy qismi (5 min.).

O'quvchilar o'qituvchi bilan birgalikda "Baraban" qo'shig'ini tinglashadi.

Amaliy qism (10 min.).

Eshitib bo'lgandan so'ng o'qituvchi ushbu savollarni berib o'tadi:

1. Kim bu qo'shiqni kuylaydi?
2. Ushbu qo'shiqni tinglaganingizda qanday his-tuyg'ular paydo bo'ldi?
3. Barabanda chalishni o'rganishga ishtiyoq paydo bo'ldimi?

O'quvchilar qo'shiqni yana bir marta tinglab, so'zlariga hamroh bo'lib kuylashadi..

Amaliy qism (15 min.). "Musiqali ansambl" mashg'uloti

Har bir o'quvchi zarbli yoki **shovqinli** (шумовой) musiqa asbobini tanlaydi (buben, doira, marakas, baraban, qo'l, oyoq, barmoq **chertish**). Shundan so'ng, o'qituvchi har bir asbob uchun oddiy ritmni ko'rsatadi, so'ngra hammalari birgalikda "Baraban" qo'shig'iga mos ravishda chalishadi. Qo'shiqning kuyi davomida barcha asboblari bir xil ritmda chaladi.